

POSHSHOXO'JANING "MIFTOHUL-ADL" ASARIDAGI HIKOYATLARDA ADOLAT TALQINI

Abdug'aniyeva Saboxatxon

FarDU 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Kichik ibratli hikoyatlar, mazmunli masallar Sharq badiiy adabiyotida va o'rta asr hamda uyg'onish davri Yevropa adabiyotida ham keng tarqalgan edi. Real hayot voqealarini haqqoniy aks ettiruvchi bunday hikoyalar hajman kichik bo'lishiga qaramay obrazli va tushunarli bo'lganligidan kitoxon va tinglovchiga g'oya va axloqiy-ta'limiy ma'lumotlarni tez va oson yetkaza oladi. Poshshoxo'janing "Miftohul-adl" asari ham xuddi shu kabi kichik hajmli novellalardan iborat nodir asar hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Temurbek, Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy, o'n besh bob, adolat, Iskandar Zulqarnayn, sulton, zohid, No'shiravon odil.

Poshshoxo'ja, Xoja (taxalluslari; asl ismi Ibodullo Sayyid Poshshoxo'ja binni Abdulvahhobxo'ja 1480-yil, Niso – 1547-yil, Buxoro) – shoir, davlat arbobi va yirik ulamo. Otasi – Abdulvahhobxo'ja Sulaymonxo'ja o'g'li o'z davrining yirik tasavvuf shayxi va shoiri bo'lgan. Poshshoxo'ja nasr va nazmda adabiy asarlar yaratgan. Muhammad „Xoja“ taxallusi bilan ijod qilgan. U Shayboniyxonning o'g'li Temur Sultonga atab „Miftoh ul-adl“ („Adolat kaliti“) Kistan Qaro Sultonga bag'ishlab „Gulzor“ kabi asarlar yozgan. Bu asarlarda axloqiy-didaktik xususiyatga ega bo'lgan fiqolarni sharhlash uchun mashhur podshohlar haqidagi turli hikoyat va masallar keltirilgan. Ularda davlatni boshqarish, raiyat bilan munosabat masalalari, insofli va adolatli podshoh obrazi tasvirlangan. "Miftohul-adl" asari XIV asr adabiyoti namunasi hisoblanib muallifi noma'lum edi, lekn o'tgan asr 60-yillariga kelib bu aar poshshoxo'jaga tegishli ekanligi ma'lum bo'ldi. Buxoro adabiy muhiti o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turgan. Amirlik ijtimoiy-siyosiy hayotida islom dini g'oyalari, qoidalari yetakchi mavzuda turgan. Adabiy muhitda yaratilgan asarlarda

diniy tushunchalarning faolligini kuatamiz. Dunyoviylik esa ularning zahirida yuzaga chiqadi.

O'tgan asrda Xojaning hayoti va faoliyati, ijodiga oid ko'plab tadqiqotlar e'lon qilingan bo'lib, Fitrat, O.Sharafiddinov, V.Zohidov, N.Mallayev, S.G'aniyeva, A.Ibrohimov, M.Mirzaahmedova kabi ilm-fan fidoyilarining xizmatlari yuqori baholanadi.

Xoja o'zbek adabiyoti tarixida kichik hajmdagi nasriy hikoyalar ustasi sifatida mashhur bo'lgan. Adib ijodiy faoliyatining kamol topishida folklorning nodir namunalari ularning mavzusi va g'oyaviy jihatlari, badiiy usul va obrazlari hamda til boyligi hamda poetic shakllari ijodiy oziq bo'li xizmat qilgan. Xojaning ijodi xalq og'zaki ijodi manbalaridan ilhomlangan holda yaratildi.

“Miftohul-adl” asari, uning yaratilgan davri, muallifi masalasini hal qilishda taniqli olim V.Zohidovning tadqiqot ishlari Xoja ijodini o'rganilishining yangi davrini boshlab berdi.

Xoja hikoyalari didaktik harakterga ega bo'lib, ularda ko'proq hayotdan olingan voqealar tasvir etiladi. Odo-axloq, xalqparvarlik, vatanparvarlik hikoyalarning asosiy mavzusini tashkil etadi. Odatda tarixiy shaxslar nomi bilan bog'liq hikoyalarga ko'proq murojaat etadi.

Poshshoxo'ja “Miftohul-adl” asari muqaddimasida uni kimga bag'ishlab yozganligi va kitobning yozilish sabablarini quyidagicha izohlaydi: “... Jami qildim bu kitobni turkiy tilina, taqi bu kitobga “Miftohul-adl” ot qo'ydim. Ko'rkluk koni, ko'rkluk sultoni davlat, saodat shohi shahzodai muazzam Temurbek xazinasiga tabarruk uchun taqi bu kitobni ayon va tasnif qilmoqg'a sabab ul erdikim, olimlar aytidurlarkim sultonlarg'a va beklarg'a va ulug'larg'a xizmat qilmoq uchun turlik turur: avval tan xizmati; ikkinchi til xizmati; uchinchi ko'ngil xizmati. Ammo tan ximati ul tururkim, qapuda turub xizmat qilsa, taqi til xizmati ul tururkim doim til birla duo qilsa, taqi ko'ngil xizmati ul tururkim, har kim bu kitob birla amal qilsa, ikki dunyoda ezgu oti chiqqay, ikkinchi – o'lganidan so'ng ul kishiga go'r azobi bolmag'ay. Uchinchi – qiyomat kuni olimlar birla, odil sultonlar birla uhmoqg'a kirgay...”

Asar o'zbek tili tarixini o'rganishda ham muhim vosita, qo'llanma sanaladi. Asar jonli xalq tilida yaratilgan o'lib, unda ortiqcha bezaklar, murakkabliklar juda kam o'rinlarda qo'llangan, deyarli unday hollarni uchratish qiyin. Uning eng yaxshi jihatlaridan biri shuki, u keraksiz, xira tasvirlardan holi, qisqa va aniq hikoya va masallardan tarkib topgan. Asardagi deyarli barcha hikoyalarda bosh qahramonlar dono, diyonatli va odil qilib tasvirlangan. Ular har qanday iflosliklar, zolimlik va yovuzliklarni yomon ko'rishadi va bunday kishilar oldida qo'l qovushtirib turmay ularga qarshi harakat qilishadi. Qahramonlarning sofdilligi va xatti-harakatlariga nisbatan o'quvchida iliq tuyg'ular va ularga nisbatan qiziqish uyg'onadi.

Poshshoxo'ja u asarni yaratishda Nizomiy Ganjaviy va Navoiy asarlaridan ham keng foydalangan. Bundan tashqari, asardagi ba'zi hikoyalar xalq og'zaki ijodida avvaldan mavjud bo'lgan rivoyat va afsonalar asosida yaratilgan. Asar umumiy o'n besh bodan iborat bo'lib, uning asosiy qismini adolatli, insofli shohlar haqidagi hikoyalar tashkil etadi. Podshohlar haqidagi hikoyatlarning aksar qismida xalq og'zaki ijodida ma'lum va mashhur bo'lgan shaxslardan Iskandar Zulqarnayn, Bahromshoh, No'shiravon odil, Luqmoni Hakim kabilarning nomi zikr qilinadi. Shohlar haqidagi hikoyatlarda, asosan, ularning adolati, insof va diyonati kuylanadi adolatning qay darajada kuhga ega ekanligi ta'kidlanadi. Misol uchun, "Shoh va zohid" haqidagi hikoyatlarni olaylik. Unda aytilishicha, bir podshoh mamlakat boshqaruvini iror ishonchli shaxga ma'lum muddatga beri, haj safarini qilmoqchi ekanini vaziriga aytganda, davlatni hech kim podshoh kabi boshqara olmasligini, uning o'rniga haj amali savobini sotib olishi mumkinligini aytadi. Podshoh agar buning imkoni bo'lsa haj savobini sotadigan biror insonni olib kelishini aytadi. Vazir yigirma marotaba haj ziyoratini qilgan bir zohidni olib keladi, podshoh unga ming qizil tanga berishi va evziga bir haj safari savobini berishini so'raydi. Zohid bunga ko'nmagach, podshoh o'n ming qizil tanga berishini aytadi. Shunda zohid "bir emas yigirma hajimning savobini ham berishga tayyorman, ammo evziga siz bir soat adolat qilganlik savobingizni manga berishingiz kerak", - deydi. Bu hikoyadan ma'lum bo'ladiki, butun bir xalq, davlat ustidan hukmron shaxslarning bir ozgina muddat davomida qilgan

adolatli ishlari va amallari, eng oliy farz hisoblangan haj ziyoratidanda ustun turar ekan.

Insonlar faqat o'zi tanigan, do'st bilgan insonlarigagina emas, balki, vaqti kelsa dushman deb bilganlari uchun ham doimo adolatda bo'lishi, adolatli qarorlar qabul qilishi shart va bu eng oliy vazifa, burch sanaladi. Chunki, insonning bu dunyodagi qilgan yaxshi amallari, boqiy dunyoda o'zi uchun kafil bo'ladi. Bunday voqea tasvirini biz "Miftohul-adl" dagi "Iskandar Zulqarnay va Doro" haqidagi hikoyada ko'rishimiz mumkin. Unda hikoya qilinishicha, Iskandar Zulqarnayn Hamadon shahri hukmdori Dorodan hiroj tala qiladi ammo Doro uni to'lashdan voz kechgan ular o'rtasida urushlar boshlanib ketadi. Iskandar heh yo'l bilan Doroni yengga olmaydi. Vazirlar Iskandarga Doroning yaqin kishilari borligi, ular bilan kelishib Doroni yo'q qilish mumkinligini aytishgach, Doro yurtiga, uning yaqinlariga, elchi yuborishadi. Iskandar Doroning odamlariga agar Doroni yo'q qilishga yordam berishsa ularni o'z yurtidagi barchadan yuqori qo'yishga va'da beradi. Ular Doroni kallasini Iskandarga olib kelishganda, Iskandar Doroni jasadini hurmat va ehtirom bilan ko'mishlarini, uning ikki xiyonatkor odamini esa baland dor qurib unga osishlarini buyuradi. Ular "bizga barchadan yuqori bo'lasizlar degan edingiz-ku! Endi nimaga so'zingizda turmayapsiz", -deyishganda, Iskandar shunday javo qiladi: "Men sizlarni hammadan yuqori qo'yaman deganim rost, sizdek xiyonatkorlarga munosib eng yuqori joy dordir". Biz bu hikoya orqali podshohni dushman podshohga bo'lgan adolati, xiyonatkor insonlarga esa nafratini, o'zini ham shu holga tushushini o'ylab qilgan aqlli ishlarini ko'rishimiz mumkin.

Demak, adolat tushunchasi barcha davrlarda ham birdek dolzarb hisoblanar ekan, Poshshoxo'janing "Miftohul-adl" va boshqa asarlarida ham adolat, odillik va xalqparvarlik g'oyalari bilan yo'g'irilgan nodir namuna sifatida odamlarni yaxshilikka chorlab, yomonlikdan qaytaruvchi vosita sifatida hali-haligacha o'z qadr-qimmatini yo'qotmagan. Shu sababdan, Xoja ijodi bugungi kunda ham o'rganish ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Poshshoxo'ja. "Miftohul-adl" va "Gulzor". – T.:O'zdamnashr,1962.
2. Мирзаахмедова М . Хожа (монография). –Т.: Фан, 1975.
3. Vohidov R, Eshonqulov H. O,,zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: yangi asr , 2006.
4. Natan Mallayev. "O'zbek adabiyoti tarixi". O'qituvchi,1965.
5. Mirziyoyev Sh. "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va tar'g'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarori.-T., 2017-yil.
6. Jumaxo'ja N., Adizova I. O'zbek adabiyoti tarixi XVI-XIX asr birinchi yarmi. – Toshkent: "Noshir", 2019.
7. Xojaning "Miftoh ul-adl" asari № 7796 inventar raqamli qo'lyozmasi.
8. Mirzaaxmedova M. Xoja. –Toshkent: "Fan", 1975.
9. Zohidov V. "Miftoh ul-adl" va "Gulzor" haqida. -Toshkent, 1961.